

O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI TAYANCH KOMPETENSIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Mazkur maqolada o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni tayanch kompetensiyalar orqali rivojlantirish masalasi yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, uning zamonaviy ta'limda qo'llanishi hamda o'quvchilarda universal ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim jarayonida belgilangan tayanch kompetensiyalar hamda ularning hayotiy ko'nikmalar bilan uyg'unligi ko'rsatib berilgan. Maqolada boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy yondashuv, kommunikativlik, ijtimoiy faollik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat kabi ko'nikmalarni rivojlantirishning zaruriyati asoslab beriladi.

B.Blum taksonomiyasi asosida hayotiy va moslashuvchan ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, ularning ta'limdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: hayotiy ko'nikmalar, tayanch kompetensiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, moslashuvchanlik ko'nikmalari, Blum taksonomiyasi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tendensiyalariga muvofiq ta'lim oluvchilarda universal kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda kompetensiya tushunchasi "hayotiy" va "moslashuvchanlik" ko'nikmalar sifatida ham talqin qilinmoqda.

Zamonaviy jamiyatdagi ta'lim tizimi mamlakatda inson rivojlanishi uchun xizmat qilishi kerak. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan xarakterlanadi.

Asosiy qism. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Ta'limning xalqarolashuvi jamiyatimizga yuksak malakali kadrlar yetkazib berishni talab etishi nuqtayi nazaridan maktabda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish va kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalariga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Uzviylashtirilgan dasturlarda, jumladan: fanlararo integratsion yondashuvga e'tibor qaratildi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixo-fiziologik rivojlanishlarini e'tiborga olgan holda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish tamoyili asosida qayta ko'rib chiqildi.

Ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish, o'quv dasturlariga amaliy fanlarni ko'proq kiritish, o'quv jarayoniga amaliyotchi o'qituvchilarni ko'proq jalb etish, ta'limning amaliyotga yo'naltirilganligini oshirish maqsadida yangi o'quv dasturlari joriy qilinmoqda.

Yangilanayotgan o'quv dasturlarida mavzular 50 foizgacha amaliy mavzular bilan boyitilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali o'quvchida hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma shakllanishi, olingan bilimni hayotda qo'llay olish imkonini bermiqda.

Xususan, Milliy o'quv dasturi uchun 20 ga yaqin eng muhim hayotiy ko'nikmalar tayanch kompetensiyalar sifatida tanlab olingan:

vatanparvarlik;
 milliy qadriyatlarga sadoqat;
 faol fuqarolik;
 tashabbuskorlik;
 ijodkorlik;
 tanqidiy fikrlash;
 muloqot qilish ko'nikmalari;
 axborot texnologiyalari;
 mediasavodxonlik;

jamoada ishlash;
 hayot xavfsizligi;
 bag'rikenglik;
 xayrixohlik;
 tadbirkorlik;
 moliyaviy savodxonlik;
 mehnatsevarlik;
 liderlik;
 ekologik madaniyat.

Ushbu hayotiy ko'nikmalarni mos kompetensiyalar sifatida quyidagicha ajratish mumkin (1-jadvalga qarang).

"1-jadval"

Tayanch kompetensiyalarga mos hayotiy ko'nikmalar

T.r.	Tayanch kompetensiyalar	Hayotiy ko'nikmalar
1.	Kommunikativ kompetensiya	muloqot qilish ko'nikmalari; jamoada ishlash;
2.	Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi	IT; mediasavodxonlik;
3.	O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi	hayot xavfsizligi; ijodkorlik; tanqidiy fikrlash; ekologik madaniyat. mehnatsevarlik;
4.	Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi	faol fuqarolik; tashabbuskorlik; liderlik;
5.	Milliy va umummadaniy kompetensiya	vatanparvarlik; milliy qadriyatlarga sadoqat; bag'rikenglik; xayrixohlik;
6.	Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi	tadbirkorlik; moliyaviy savodxonlik;

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmi beriladi va ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga asoslanadi.

Tayanch kompetensiyalar orqali o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarning hayotda qo'llay oladigan amaliy ko'nikmalarini shakllantirish asosiy maqsad qilib olinadi.

Tayanch kompetensiyalar o'quvchilarning turli hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va qobiliyatlar yig'indisidir. Bu

kompetensiyalar o'quvchiga nafaqat o'qituvchining taqdim etgan bilimini o'zlashtirish, balki uni amalda qo'llay olish imkonini beradi.

Hayotiy va moslashuvchanlik ko'nikmalarini muhim va tayanch bilim, ko'nikmalar sifatida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ular inson uchun o'zi tanlagan kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlab ketishiga imkon berishini yaqqol ko'rish mumkin.

O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish tizimli, rejali ravishda amalga shirilishi lozim. Ma'lum bir hayotiy ko'nikmani shakllantirish ikkinchi bir boshqa ko'nikma bilan bog'langan holda amalga oshadi. Shuning uchun ham o'quvchida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishni rejalashtirish lozim. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishni rejalashtirish – ta'lim jarayonida o'quvchilarni nafaqat bilim olish, balki hayotda zarur bo'ladigan amaliy malaka va ko'nikmalarga ega qilishni maqsad qiladi.

Rejalashtirish jarayonida maqsadlar aniq belgilanishi lozim. O'quvchilarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati, ijtimoiy muloqot va hamkorlikni rivojlantirish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlash maqsad qilinsagina natija samarali bo'ladi.

Hayotiy ko'nikmalarni qanday rivojlantirish mumkin?

O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishda tezda ta'sir ko'rsatadigan natijalarga tez fursatda erishishni ko'zda tutilmaydi. U yoki bu ko'nikmani o'zlashtirish uchun vaqt talab etiladi. Bunda esa quyidagilarni inobatga olish zarur.

- qayta aloqani o'rnatish;
- o'z ustida ishlash;
- boshqa kishilar yordamida o'qish va mentvorking;
- maxsus vazifalarni bajarish.

Pedagogika fanida ushbu holatda o'ziga o'zi xizmat qilishning elementar va "yashab qolish" ko'nikmalari jamiyatdagi kognitiv yoki boshqa jarayonlarni izdan chiqqanligi sababli yo'qotilgan alohida ijtimoiy ko'nikmalarni o'rnini qoplash sifatida qarab chiqiladi. Psixologik fanlar esa "hayotiy ko'nikma" tushunchasi shaxsning psixologik yosh me'yorlariga ko'ra qo'llaniladi.

Biroq, bu qatordagi cheklovlar ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, bu esa tashkil etiladigan ta'limiy jarayonlar doirasidagi pedagogik vazifalarni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Bunda "hayotiy" ko'nikmalarni takomillashtirish yoki shakllanib bo'lingan o'zini tutish uslubi, o'ziga va atrof-olamga nisbatan qadriyatli munosabatlar kabi malakalar asosida moslashuvchan ko'nikmalar va ta'lim oluvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi ta'limiy faoliyatning normativ-huquqiy jamlanmasining tadrijiy rivojlanish jarayonida belgilangan tushunchalarni birlashtirilgan yaxlit majmuasi turadi. Ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlar bu holatda maktabgacha ta'limdan tortib keyingi oliy ta'limda, ya'ni universal ta'limiy faoliyatdan oliy ta'lim muassasasidagi universal kompetensiyalarni shakllantirish izchilligini ifodalaydi. Shunday

qilib, bolaning ontogentik mantiqiy rivojlanishiga ko'ra, "hayotiy" ko'nikmalari tushunchasi maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbatan psixopedagogik vazifalarni aniqlashda ham foydalanish mumkin. Ushbu bosqichda bolaning alohida qirralarini shiddat bilan rivojlanishi, uning prosotsial va kommunikativ ko'nikmalari, o'zini boshqara olish ko'nikmalari singdiriladi.

Bolaning kelgusidagi shakllanishi uning ijtimoiylashini yangi darajaga o'tishi va moslashuvchanlik imkoniyatlarini shakllanishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, mustaqil, kimgadir muhtoj bo'lmaslik imkoniyatini berish bilan bir paytda o'ziga yaqin bo'lgan ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'liq holda psixosotsial (kishilarga do'stona yordam bera olishi), ijtimoiy emotsional ko'nikmalari va kognitiv qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu esa uning umumiy o'rta ta'lim bilimini shakllantirayotgan davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim bosqichida "hayotiy" va "moslashuvchan" ko'nikmalar tushunchalarni belgilanishi Blum taksonomiyasi asosida amalga oshirish mumkin(2-jadvalga qarang).

"2-jadval"

Umumiy o'rta ta'lim maktabida "hayotiy" va "moslashuvchan" ko'nikmalar

Blum taksonomiyasi tarkibidagi ko'nikmalar	"Hayotiy" ko'nikmalar	"Moslashuvchan" ko'nikmalar
Bilish	Mavjud ma'lumotlarni bilish, xotirani takomillashtirish (xabardor bo'lish, esga tushirish).	Xotirani rivojlantirish uchun mnemotexnikani bilish, eslab qolish va yodga olishning optimal usullarini tanlash
Tushunish	Talqin qilish, misollar orqali tushuntirish, voqealarni tasniflash va ularni umumlashtirish, xulosa chiqarishni ifodalash asosida o'quv materialini mazmunini shakllantiruvchi mantiqiy ma'noga ega modellarini qo'llash.	Mavjud ma'lumotlarni konseptuallashtirish (yaxlit tizimga umumlashtirish, masalan, olamni anglash), kommunikativ ko'nikmalar (tushuntirish, olamning xususiy manzarasini namunadagisi, boshqalarga ahamiyatga ega ekanligi bilan taqqoslash va h.k.)
Qo'llash	Jarayonlarga oid ko'nikmalarga ega bo'lish (analogik vaziyatlar harakatining algoritmi).	Jarayonga oid metakognitiv ko'nikmalar: xatti-harakatlar algortmi, algoritmi amalga oshirishning har bir bosqichidagi xatti-harakatlar metodlari va yo'llari, taym-menejment.
Tahlil	Voqealarini differensiyalashga oid kognitiv ko'nikmalar, ularni bilan ishlarni tashkil etish, avval o'zlashtirilgan voqealarni yangilari bilan muvofiqlashtirish	Tashkiliy-boshqaruv ko'nikmalar: faoliyatni strategik rejalashtirish, rejalashtirishda maqsad va vazifalarni farqlay olish
Sintez	O'tkazilgan tahlilni umumlashtirish asosida g'oyalarni yuzaga keltiruvchi kognitiv ko'nikmalar.	Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Metakognitiv jarayonga oid ko'nikmalar: umumlashtirish tamoyillari, qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish. O'zini ko'rsata olish va yangi g'oyalarni taqdim eta olish ko'nikmalari: kommunikativ ko'nikmalar, jamoada ishlay olish

		ko'nikmalari.
Baholash	Mulohaza va xulosa qila olish ko'nikmalari. Farazlarni tekshirish, dalillangan tanqid va o'zini tanqid qila olish tamoyillariga ega bo'lish	Madaniyatlararo, shaxslararo muloqot ko'nikmalari. Verbal va noverbal muloqot ko'nikmalari. Psixosotsial o'zini korrektsionalay olish va shaxsiy ta'limot tizimini korrektsionalash ko'nikmalari.

Shunga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "hayotiy" ko'nikmalar o'quvchilar o'zini rivojlantirishining murakkab tizimi sifatida "moslashuvchan" ko'nikmalarini shakllanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. B.Blum taksonomiyasini takomillashtirish natijasida yetarli darajada "hayotiy" ko'nikmalarni tushunish orqali osongina muvofiqlashtirish mumkin. Bu esa uzluksiz ta'limning navbatdagi bosqichidagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Xulosa. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni tayanch kompetensiyalar orqali rivojlantirish ta'limning zamonaviy yondashuvlaridan biridir. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarni nafaqat bilimga ega bo'lishga, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishga o'rgatadi. Bu esa shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish, jamoada ishlash, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Maqolada keltirilganidek, hayotiy va moslashuvchan ko'nikmalarni birgalikda rivojlantirish orqali uzluksiz ta'lim tizimining samaradorligi ta'minlanadi. Natijada, tayanch kompetensiyalar o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent – 2017, -249 bet.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fanl. dokt. ... ilm. daraj. ...diss. – T.: Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 2004. -247 b.
3. Davletov E.Y. Kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida // "Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologikpedagogik jihatlari" respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 2-iyun. 377-382-betlar.
4. Karimova G. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari // "Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari" jurnali. Vol.12. №01.2025. 304-306 bet.
5. Kosimova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari // "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" (2023-yil № 11). 178-181-betlar.
6. Хамидов В.С., Сирожиддинов К.И., Умархонов Н.И., Исмоилов К.А., Турсунбоев Х-Е., Абдуллаев З.С. Электрон таълим мухитида касбий компетентликни такомиллаштириш. Монография. - Т.: ТИКХММИ, 2018. – 116 бет.

7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 bet.
8. Raxmonova Sojida Muxammadovna. “Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity”. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. Pages 288-293
9. Raxmonova Sojida Muxammadovna. “Practical features of preparing primary education students for professional activity” science and innovation in the education system, 2(9), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>. 31.08.2023 y
10. Рахмонова Сожида Мухаммадовна. “Педагогико-психологические особенности подготовки учителей начальных классов к инновационной профессиональной деятельности. Innovative research in the modern world: theory and practice, 2(23), 92–94с. 11(39)-son 31.08.2023 y
11. S.M.Raxmonova Didactic possibilities of improving the methodology for preparing future educators of the preschool educational organization for innovative professional activities. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.
12. S.M. Raxmonova Bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'z-o'zini shakllantirish va mukammallashtirishga o'rgatish. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал. ¾. 2023 y. 141-146